

## **O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI**

**Meyliqulova Feruza**

Termiz davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Gender tengligi yoki ayol va erkaklarning teng huquqliligi. Bugungi kunda ayol va erkaklarning huquqlari, erkinlik va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq va ravshan qilib belgilab qo'yilgan. Ushbu maqolada O'zbekistonda gender tengligi va uning huquqiy asoslari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** gender, jins, genderologiya, gender terminlar, qonunlar, Oliy majlis, gender neytral til, gender tenglik.

**Аннотация:** Гендерное равенство или равноправие женщин и мужчин. В данное время в Конституции Республики Узбекистан чётко и ясно оформлена права, свободы и обязанности женщин и мужчин. В данной статье представлена информация о гендерном равенстве в Узбекистане и его правовой основе.

**Ключевые слова:** гендер, гендер, гендерология, гендерные термины, законы, Олий Мажлис, гендерно-нейтральный язык, гендерное равенство.

**Abstract:** Gender equality or equal rights of women and men. Today, the rights, freedoms and obligations of women and men are clearly defined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. This article talks about gender equality and its legal basis in Uzbekistan.

**Key words:** gender, gender, genderology, gender terms, laws, Oliy Majlis, gender neutral language, gender equality.

### **KIRISH**

Hozirgi kunda davlatlar rivojlanishida alohida e'tiborga olingan masalalar sirasiga jamiyat, davlat, ta'lim, oila tuzilmalarida gender tenglik masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tushuncha tadqiqotlar maydoniga o'tgan asrning 70- yillarida kirib keldi. Aynan shu davrdan "gender tengligi" tushuncha va bu haqida bir qancha nuqtai nazarlar paydo bo'la boshlagan. Ba'zi bir guruh tadqiqotchilar gender tengligi — bu

patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy- jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi ekanligi to'g'risida o'z g'oyalarini ilgari suradilar. Gender tengligining asosiy maqsadi hayotning barcha sohalarda erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. BMT bosh Assambleyasining 1967- yil 7- noyabrda qabul qilingan Ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish Butunjahon deklaratsiyasining 1-moddasida "Ayollarga nisbatan kamsitish, ularning erkaklar bilan teng huquqliligini rad etish yoki cheklashga olib keladigan holatlar qayd etilsa o'z mohiyatiga ko'ra adolatsizlik bo'lib, inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etilgan hisoblanadi", deb ta'kidlangan. Yurtimizda gender tengligining birinchi belgisi sifatida 1992-yil qabul qilingan Bosh qomusimizning II bo'lim X bobi 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" deb mustahkamlab qo'yilganligini yurtimizda gender tengligining birinchi belgisi sifatida ko'rish mumkin. Bundan tashqari davlatimiz Konstitutsiyasining 2023-yilgi tahririda ham bu modda saqlanib qolgan. So'nggi yillarda davlatimiz hududida qabul qilingan qator huquqiy asoslar, ayniqsa, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish to'g'risida" va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinishi tufayli gender tenglikka xilof bo'lgan barcha cheklovlar, xatti-harakatlarga chek qo'yilishi ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasining qonuni Xotin –qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan.

2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullanishiga qaramasdan, hali ham oilaviy zo'ravonliklarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarini poymol etilayotgani, ham oilada ,ham jamiyatda ayol huquqlarining buzilishlari ayni haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligidir. Bundan xulosa qilish mumkinki, gender tengligining nafaqat konstitutsiyaviy, balki xalqaro huquqiy asosi ham kafolatlangan. Gender tengligi bu ham ijtimoiy tenglik demakdir. Bunday tenglikni ta'minlash uchun Konstitutsiya va qonunlarga zarur qoidalarni kiritishning o'zi kifoya emas. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda xotin-

qizlarning hayotning har jabhasida faolligini oshirish, huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish bo'yicha 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi.<sup>1</sup>

Agar shaxs o'zini jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan deb hisoblasa, vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lib, bunda jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan shaxsdan davlat boji undirilmasligi, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi to'g'risidagi ishlarni sudlarda ko'rish chog'ida advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmatlarga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ularning xohishiga ko'ra davlat hisobidan qoplanishi hamda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilanadi.

Globalashuv jarayonlari ta'sirida insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilishadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, "yo oila, yo ish" ,- degan fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Ko'rib turibmizki, rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengiligiga erishish eng og'ir masalalardan biridir.<sup>2</sup>

Jamiyatda, oilada xotin-qizlar bilan bog'liq ijtimoiy masalalarni yaxshilash bilan shug'ullanadigan O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning barcha viloyatlardagi bo'linmalari, Oliy Majlisning «Mehnat, ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi», «Oila va ayollar muammolari komissiyasi» (2000-2004 y.), "Sog'lom avlod"

<sup>1</sup> Курбанова, Г., & Курбанова, Ш. (2023). Интерактивные образовательные технологии в развитии коммуникативной компетентности студентов по русскому языку. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 575-580.

<sup>2</sup> Ergasheva.G "Turli tillar tizimida gender terminalogiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar" dissertatsiya DS, Toshkent 2018 y.

jamg'armalari va "Huquqshunos ayollar", "Ilm-fan va ayol", "Ijodkor ayollar", "Tashabbuskor ayollar", "Ayol va salomatlik", "Faxriy ayollar" jamoatchilik uyushmalari hamda boshqa jamoat tashkilotlarining faoliyati muhimdir. Hozirgi kunga kelib, ayollarning haq-huquqlarini ilgari surish hamda rivojlantirish, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha qatlamidagi rolini kuchaytirilayotganining tasdig'ini siyosiy partiyalardagi faoliyat olib borayotgan ayollar faolligi 36 foizdan 50 foizgacha oshganida kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda ayollarimiz iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Jumladan, sanoatda 52%, xalq ta'limi tizimida 70%, sog'liqni saqlash tizimida esa 73% ayollar mehnat qilmoqdalar.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Rivojlangan davlatlarda ayolning huquq va erkinliklari muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Ayolning huquqlari himoya qilingan davlat har jabhada yuksalishi tabiiy. Ayollar qanchalik ilm-fan sohasida, yoki ijtimoiy-siyosiy sohalarda faolligi oshgan sari jamiyat ham yuksala boshlaydi. Ayollarning intellektual salohiyati yuksalishi, jamiyatda komil insonlarning kamol topishi uchun zamin yaratadi. Har bir mamlakat o'z kelajagi uchun qilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalardan biri bu xotin-qizlar masalasidir, ularga berilgan e'tibor kelajakka bo'lgan e'tibor demakdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son
2. Ergasheva.G "Turli tillar tizimida gender terminalogiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar" dissertatsiya DS, Toshkent 2018 y.
3. K.R. Aliyeva "O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlashning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari" ilmiy ishi, Toshkent 2019 y.
4. S.Hamdamova "Gender tushunchasi va uning asosiy mohiyati", Farg'ona 2020 y.
4. Karimov I.A "Istiqlol va ma'naviyat", Toshkent, 1994 y.
5. Умаров, А. А., & Абдумуродова, М. Р. (2023). ЯЗЫКОВЫЕ И РЕЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 3(2).

6. Курбанова, Г., & Курбанова, Ш. (2023). Интерактивные образовательные технологии в развитии коммуникативной компетентности студентов по русскому языку. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 575-580.

7. Berdiyeva, S. (2023). Zamonaviy adabiyotda non-ficshning o'ziga hosligi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(1), 59-62.

8. Умаров, А. А. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ НА УРОКАХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ. *Научный Фокус*, 1(7), 185-189.

9. Умаров, А. А., & Вохобов, Т. Т. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. *Научный Фокус*, 1(7), 181-184.

10. Умаров, А. А. (2023, May). ОЦЕНКА УРОВНЯ ВЛАДЕНИЯ РУССКИМ ЯЗЫКОМ В УЗБЕКСКИХ ШКОЛАХ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 14, pp. 130-134).

11. Аннакулова, У. А. (2023). РОЛЬ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКЕ ЛИТЕРАТУРЫ. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 119-123.

12. Навбатова, Р. (2023). СПЕЦИФИКА РАЗВИТИЯ МАЛОГО ЭПИЧЕСКОГО ЖАНРА В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ НАЧАЛА XX ВЕКА. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1 (8), 66-69.

13. Навбатова, Р. Х. (2020). ОСМЫСЛЕНИЕ ОКСЮМОРОНА В ПОЭТИКЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (1-5), 71-73.